

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
28-mavzu: “O‘zbek madaniyati”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarga O‘zbekiston madaniyatining tarixiy ildizlari, milliy urf-odatlar, san’at va an’analar haqida tushuncha berish, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyatini anglatish, shuningdek, o‘zbek xalqining boy madaniy merosini asrab-avaylash va uni dunyo miqyosida targ‘ib etish g‘oyasini shakllantirish.

Annotatsiya: Mazkur dars orqali o‘quvchilarga o‘zbek madaniyatining asrlar osha sayqallangan tarixi, milliy urf-odatlar, san’at turlari, an’analar hamda bu boy madaniy merosni asrab-avaylash zarurati haqida tushuncha beriladi. Darsda o‘quvchilar xalqimizning urf-odatlari, bayramlari, xalq amaliy san’ati, musiqa va raqs madaniyati, milliy liboslari, marosimlar va qadimiy obidalar bilan tanishadilar.

Aniq maqsadlar:

- O‘quvchilarga O‘zbekiston madaniyatining tarixiy ildizlari, milliy urf-odatlari, san’at va an’analar haqida asosiy tushunchalarni berish;
- Milliy urf-odatlar va an’anaviy qadriyatlarning xalq hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish orqali o‘quvchilarda milliy madaniyatga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantirish;
- O‘zbekistonning boy madaniy merosini asrab-avaylash va uni xalqaro maydonda targ‘ib etish zarurligini tushuntirish va bu borada ongli munosabatni shakllantirish;
- O‘quvchilarda Vatanga muhabbat, tarixiy xotiraga hurmat, milliy qadriyatlar bilan faxrlanish kabi ijobiy his-tuyg‘ularni shakllantirish.
- O‘quvchilarning madaniy merosga oid bilim va qarashlarini hayotiy misollar asosida tushuntirish va bu bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Asosiy g‘oya:

O‘zbek xalqining boy va qadimiy madaniy merosi – bu millatning o‘zligidir. Uni asrab-avaylash, avloddan-avlodga yetkazish va jahon miqyosida targ‘ib etish har bir yosh avlodning burchidir.

Kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

- O‘quvchilar O‘zbekiston madaniyati, urf-odatlari, san’at turlari va an’analarining tarixiy ildizlari haqida bilimga ega bo‘ladi.
- Madaniy meros tushunchasi va uning xalq hayotidagi o‘rni haqida umumiy tasavvur hosil qiladi.

- O'zbek madaniyatining boshqa xalqlar madaniyati bilan o'xshash va farqli jihatlarini tushunadi.

- Madaniy qadriyatlarning saqlanishi va targ'ib etilishi zarurligini asoslab bera oladi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- O'quvchilarda o'z milliy madaniyatiga nisbatan hurmat va faxr tuyg'usi shakllanadi.

- Madaniy merosni asrashga mas'uliyatli munosabatda bo'lish, qadriyatlarni qadrlash hissi uyg'onadi.

- Vatanni sevis, milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat bilan qarash kabi tuyg'ular mustahkamlanadi.

- Estetik did, go'zallikni ko'ra olish va qadrlash qobiliyati rivojlanadi.

3. Amaliy ko'nikmalar darajasida:

- O'quvchilar milliy qadriyatlar haqida fikr yuritish, ularga oid misollar keltirish ko'nikmalarini egallaydi.

- Guruhda ishlash, fikr almashish, madaniy mavzularda ijodiy loyiha yoki taqdimot tayyorlash tajribasiga ega bo'ladi.

- Madaniy-tarixiy obidalar, urf-odatlar, xalq san'ati haqida ma'lumot izlash va ularni taqdim etish ko'nikmasi shakllanadi.

- To'g'ri savol berish, muloqot qilish, madaniyat mavzusida suhbat qurish amaliyoti ortadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- O'quvchilar o'z sinfdoshlari bilan hamkorlikda ishlash, fikrlash va madaniy masalalarda muloqot qilish madaniyatini rivojlantiradi.

- Ijtimoiy hayotda madaniy merosning ahamiyatini tushunib, bu boradagi fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

- Milliy birlik va totuvlik g'oyalarini anglaydi, turli hududlarning madaniy xususiyatlariga hurmat bilan qarashni o'rganadi.

- Yosh avlod sifatida o'zining madaniy merosni asrashdagi rolini anglaydi va buning uchun mas'uliyat sezadi.

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. <https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Tavsiya etilgan shakl: bilim beruvchi suhbat, musiqiy namoyish, videolavha.

ASOSIY DARS MASHG'ULOTI

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Tasavvur qiling... bizning **katta uyimiz** bor. Hammamiz shu uyda yashaymiz. Tasavvur qildingizmi? Bu uyda ko'p xonalar bor. Har bir xonada alohida bir go'zallik yashaydi. Bir xonada odob va muomala bor. Yana bir xonada milliy kiyimlarimiz bor. Boshqa bir xonada ertaklar, maqollar, askiyalar yashaydi. Yana bir eshik ortida musiqa yangraydi. Boshqa bir eshik ortida teatr va kino olami yashaydi. Yana bir joyda naqshlar, kashtalar, tarixiy obidalar, me'morchilik mo'jizalari bor.

Bu uyni nomi – **MADANIYAT**.

Kimdir bu uyda chiroyli gapiradi, kimdir chiroyli kiyinishni biladi, yana kimdir esa qo'shiq aytadi, rasm chizadi... Demak, bugun biz shu "katta uy"ni ichidan ko'rib chiqamiz!

Kelinglar, shu haqidagi videoni birgalikda tomosha qilamiz.

Vizual kontent

O'zbek madaniyatini bir saroyga jamladik

https://youtu.be/qWB1_wafOPM?si=vNcfxuEDfMRY8qKy

O'qituvchi: Ayting-chi, madaniyat nimadan boshlanadi? Katta sahnalardanmi? Mashhur san'atkorlardanmi? Yoki oddiygina salomlashishdan, chiroyli gapirishdan, kattalarni hurmat qilishdanmi?

O'qituvchi bolalar javoblarini eshitadi, rag'batlantiradi.

O'qituvchi: Juda yaxshi. Demak, sizlar allaqachon tushunib turibsiz: madaniyat uzoqdagi narsa emas. U avvalo insonning o'zidan boshlanadi. Insonning kiyinishidan, muomalasidan, nutqidan, odatlaridan boshlanadi. Keyin esa ana shu yaxshi odatlar birlashib, butun bir xalqning go'zal madaniyatini yaratadi.

Shuning uchun bugungi darsimiz juda muhim. Chunki biz bugun nafaqat "madaniyat nima?" degan savolga javob topamiz, balki nega o'zbek madaniyati bilan faxrlanishimiz kerakligini ham bilib olamiz.

Videoda ko'rdingizki, o'zbek madaniyati juda boy. Unda faqat bitta yo'nalish emas, juda ko'p go'zal olamlar bor ekan. Demak, bugun biz shu boyliklarni yaxshiroq tanib olamiz. Avval madaniyatning insonning o'ziga tegishli qismi haqida gaplashamiz, keyin esa butun xalqimizga tegishli umumiy madaniyat olamiga sayohat qilamiz.

Demak, darsimizni boshlaymiz: **Madaniyat – umumiy uyimiz.**

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi doskaga katta uy rasmi chizadi (2 qavatli).

O'qituvchi: Bolajonlar, biz hozirgina madaniyatni katta uyga o'xshatdik. Qaranglar, bu uy 2 qavatdan iborat. 1-qavatida shaxsiy madaniyat yashaydi. U har birimizga tegishli. Bu eng muhim qavat. Bu – har bir insonning ichida bor madaniyatdir. Masalan: kiyinish, muomala, nutq, odatlar...

Ya'ni bu yerda siz har kuni qiladigan ishlaringizda ko'rinadigan shaxsiy madaniyatingiz yashaydi.

Kelinglar, shularga birgalikda misollar keltiramiz:

Ertalab maktabga kelganda nima deymiz?

O'quvchilar: Assalomu alaykum!

O'qituvchi: Juda yaxshi. Kattalarni ko'rsak nima qilamiz?

O'quvchilar: Salom beramiz!

O'qituvchi: Juda to'g'ri. Bu ham madaniyat. Do'stlarimiz bilan gaplashganda qanday gapiramiz?

O'quvchilar: Chiroyli, muloyim!

O'qituvchi: To'g'ri. Bu ham madaniyat. Toza kiyinish, tartibli yurish-chi?

O'quvchilar: Bu ham madaniyat!

O'qituvchi: Demak, shaxsiy madaniyat – bu sizning ichingizdagi go'zallikdir. Bu sizni boshqalarga qanday ko'rinishingizni belgilaydi.

Eng muhimi, agar uyimizning shu pastki qavati bo'lmasa, bu uy mustahkam turmaydi, hamma narsa aynan o'zimizdan, ichki madaniyatimizdan boshlanadi.

Endi ikkinchi qavatga chiqamiz. Bu qavatda barchamizga umumiy bo'lgan o'zbekistonliklarning madaniyati yashaydi.

O'qituvchi yuqori qavatni ko'rsatadi:

O'qituvchi: Bu – butun o'zbek xalqiga tegishli madaniyat ham ko'p sohalardan iborat, ular uyimizning turli xonalarida yashaydi va bir-birini to'ldiradi. Bu yerda xalqimizning ma'naviy boyligi yashaydi. Masalan, xalq og'zaki ijodini olaylik: ertaklar, maqollar, askiya xalq og'zaki ijodi hisoblanadi.

Orangizda kim biror maqol biladi?

(1-2 bola aytadi)

O'qituvchi: Barakalla! Bu bizning donishmandligimizdir.

Yana amaliy san'atimiz bor: kashtachilik, zardo'zlik, kandakorlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, naqshlar...

Onangiz yoki buvingiz kashta tikkanini ko'rganmisiz? Mana shu ham madaniyat!

Adabiyotimiz ham madaniyatimizning bir qismidir: kitoblar, she'rlar, hikoyalar... Biz o'qiyotgan ertaklar ham madaniyatdir.

San'atimiz esa katta ummonga o'xshaydi. Unda teatr, kino, musiqa (maqom, milliy qo'shiqlar), kulgi va so'z san'ati bor.

Kim teatrga borgan?

Kim kinoni yaxshi ko'radi?

Kim ko'p qo'shiq eshitadi?

Bolalar javob beradi

O'qituvchi: Mana shular ham bizning boyligimiz. Yana arxitektura, ya'ni me'morchiligimiz bor. Unga binolar, inshootlar, shahar va qishloqlarimizning milliy qiyofasi kiradi.

Samarqand, Buxoro haqida eshitganmisiz?

U yerdagi go'zal binolar ham madaniyatimiz!

Bolalar javob beradi

O'qituvchi: Uyimizning bu qavati bizni dunyoga tanitadi. Bu xalqimizning buyuk boyligidir.

Hozir bizning madaniyatimizning eng boy xazinalaridan biri bo'lgan Xorazm milliy me'morchiligi an'alarini o'zida mujassam etgan "Arda Xiva" majmuasi haqida tayyorlangan lavhani birgalikda tomosha qilamiz.

Vizual kontent

"Arda Xiva" shaharchasidamiz

<https://youtu.be/H5zrpXAU3zE>

O'qituvchi: Endi eng muhim savol: agar "Madaniyat" degan uyimizning pastki qavati bo'lmasa, yuqori qavat nimaning ustiga quriladi?

O'quvchilar: Hech nimaning!

O'qituvchi: To'g'ri. Agar insonning o'zi madaniyatli bo'lmasa, xalqning katta madaniyati ham bo'lmaydi. Chunki katta madaniyat kichik odatlardan boshlanadi!

Interaktiv mashq. "Qaysi qavatga tegishli?"

O'qituvchi tez-tez aytadi, bolalar javob beradi:

O'qituvchi: Salomlashish?

O'quvchilar: 1-qavat!

O‘qituvchi: Teatr?

O‘quvchilar: 2-qavat!

O‘qituvchi: Toza kiyinish?

O‘quvchilar: 1-qavat!

O‘qituvchi: Kino?

O‘quvchilar: 2-qavat!

O‘qituvchi: Maqol aytish?

O‘quvchilar: 2-qavat!

O‘qituvchi: Kattalarga hurmat?

O‘quvchilar: 1-qavat!

O‘qituvchi: Zo‘r! Sizlar juda yaxshi farqlay oldingiz!

Aziz bolajonlar. Davlatimiz madaniyatga katta e’tibor qaratadi. Hozir yurtimizda hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida madaniyatni rivojlantirish uchun qilinayotgan ishlarni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Buyuk kelajak, buyuk adabiyot, buyuk san’at sari

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/482

O‘qituvchi: Bolajonlar, biz shunday xalqmizki, oddiy odatlarimiz ham juda chiroyli, san’atimiz esa butun dunyoga mashhur. Biz mehmonni hurmat qilamiz, muomala madaniyatimiz rivojlangan, qo‘shiqlar, ertaklar, teatr, kinomiz ham tarixan boy va go‘zal. Eng muhimi, Siz ham shu madaniyatning bir bo‘lagisiz!

Siz qanday bo‘lsangiz, kelajakdagi o‘zbek madaniyati ham shunday bo‘ladi.

O‘qituvchi savollar beradi:

Madaniyat nima? U nechta qismdan iborat?

Shaxsiy madaniyatga misol ayting.

Xalq madaniyatiga misol ayting.

O‘quvchilar javob beradi, rag‘batlantiriladi

YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Bolajonlar, biz bugun madaniyatning katta uyiga sayohat qildik. Uning pastki qavatida o‘zimizning odatlarimizni, yuqori qavatida esa xalqimizning buyuk san’ati va boy merosini ko‘rdik. Lekin madaniyatni faqat gapirish yoki bilish emas, his qilish ham kerak!

O'zbek madaniyatida shunday bir san'at borki, unda so'zsiz ham hamma narsani aytish mumkin. Bu – **raqs**. Raqsda quvonch, hurmat, go'zallik, millatimiz ruhi bor.

Hozir biz **o'zbek milliy raqslarini** tomosha qilamiz. Lekin bu safar shunchaki tomosha qilmaymiz. Siz ham raqsga qo'shilasiz – harakatlarni takrorlaysiz! O'zingizni sahnadagidek his qilasiz! Tayyormisiz?

O'quvchilar: Ha!

Vizual kontent

Birgalikda raqs tushamiz! (*bolalar ham qo'shilib raqsga tushadi*)

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/483

O'qituvchi: Barakalla, bolajonlar! Ko'rdingizmi, madaniyatni nafaqat o'rganamiz, biz uning ichida yashaymiz!

Sizning har bir chiroyli so'zingiz, chiroyli muomalangiz, yaxshi odatingiz madaniyatning bir bo'lagidir. Sizning har bir qo'shig'ingiz, raqsingiz, ijodingiz bu madaniyatning davomidir.

Esingizda bo'lsin: madaniyat – bu bizning umumiy uyimiz. Siz shu uyning bo'lajak egalarisiz!

Agar siz uni asrasangiz, u yanada chiroyli bo'ladi. Agar siz uni sevsangiz, u butun dunyoga yanada kengroq tarqaladi!

Bugundan boshlab sizlarga kichik vazifa shuki, uyda ota-onangizga chiroyli muomala qilasiz, kattalarga hurmat ko'rsatasiz. Agar xohlasangiz, bugungi raqsdan kichik harakatni ularga ko'rsating.

Bugungi darsimiz shu bilan nihoyasiga yetdi. Xayr, keyingi darslarda ko'rishguncha!